



Memory and methods of strengthening memory in adolescent students

Dilorom AYMATOVA¹

Pedagogical institute of Karshi state university

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2021

Received in revised form

15 November 2021

Accepted 20 December 2021

Available online

15 January 2022

Keywords:

memory,
psychological development,
methodology,
types of memory,
emotional memory,
logical memory,
action memory,
speech and logic.

ABSTRACT

The role of memory in human psychology, psychology in pedagogy, methods of memory development, the psyche of adolescents, the relationship of methodology and psychology. Types and related teaching methods, analysis and selection of methods used by high school students.

2181-1415/© 2021 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss11/S-pp142-145>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Xotira va o'smir yoshdagi o'quvchilarda xotirani mustahkamlash metodlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

psixologik rivojlanish,
metodologiya,
xotira turlari,
emotsional xotira,
logik xotira,
harakat xotirasi,
so'z va mantiq.

Ushbu maqolada xotiraning inson psixologiyasidagi o'rni, pedagogikada psixologiya, xotirani rivojlantiruvchi metodlar, o'smir yoshdagi o'quvchilar psixikasi, metodologiya va psixologiyaning bog'liqligi, xotira turlari va unga bog'liq dars metodlari, yuqori sinf o'quvchilarida qo'llaniladigan metodlarni saralash haqida so'z yuritiladi.

¹ teacher, department of humanities, Pedagogical institute of Karshi state university, Karshi, Uzbekistan

Память и методы укрепления памяти у подростков

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Память психологическое развитие методика, виды памяти, эмоциональная память, логическая память, память действия речь и логика.

Роль памяти в психологии человека, психология в педагогике, методы развития памяти, психика подростков, взаимосвязь методики и психологии. Виды и родственные методы обучения, анализ и выбор методов, применяемых у старшеклассников.

Xotira – in'ikos etilgan narsa yoki hodisalarni yoki o'tmish tajribalarini esda qoldirish va zarur bo'lganlarini tiklashdan iborat bo'lgan psixik jarayon. Xotira barcha psixik jarayonlarning eng muhim xarakteristikasi bo'lishi bilan birga, inson shaxsining birligi va yaxlitligini ta'minlaydi. Shaxsning o'z tajribasini eslab qolishi, esda saqlashi va keyinchalik yana esga tushirishi bu xotiradir. Eslab qolish, esga olish, esda saqlash va unutish xotiraning unsurlaridir. Faoliyatda ko'proq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab xotira harakat, emotsional, obrazli va so'z-mantiqli turlarga bo'linadi. Faoliyatning maqsadlariga ko'ra ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira turlarini tasnif etish mumkin. Materialni saqlab qolish davriga ko'ra uzoq muddatli va qisqa muddatli xotira turlarini ajrata olamiz.

Xotiradagi eng muhim jarayonlardan biri yod olish bo'lib, bu usul butun materialning mazmunini bilib olish, uning qismlarini guruhlariga ajratish, guruhlar ichidagi munosabatlarni, guruhlararo bog'lanishlarni aniqlash kabi jarayonlarni o'z tarkibiga oladigan mnemik harakatning tuzilish xususiyatlariga ko'proq mos keladi.

Odam o'zi guvohi bo'lgan, eshitgan hodisotlarini juda oz miqdordagina eslab qoladi. Psixikaning eng muhim xususiyati shundan iboratki, individ tashqi ta'sirlarning aks ettirilishidan o'zining keyingi xatti-harakatlarida doimo foydalanadi. Individual tajriba oshishi hisobiga xulq-atvor sekin-asta murakkablashadi. Tashqi dunyo miya qobig'ida obrazlar hosil qiladi. Bu obrazlar o'zaro turli aloqalar bog'lagan holda mustahkamlanib, saqlanib qoladi hamda hayot va faoliyat talablariga muvofiq tarzda yana boshqatdan namoyon bo'ladi.

Xotira ta'riflarining esda saqlab qolish va qayta esga tushirish jarayonlari sodir bo'ladigan faoliyat xususiyatlariga bog'liqligi xotirani turlicha tasnif qilish uchun asos bo'ladi. Biz pedagogika-psixologiya yo'nalishida dars jarayonida o'quvchilarda xotirani mustahkamlashga qaratilgan metodlar yuzasidan tahlil olib borar ekanmiz, avvalo, xotiraning qanday turlari mavjudligi va ular nimaga asosan turlarga ajratilishini o'rganishimiz lozim.

Harakat xotirasi – turli ish-harakatlar va ularning tizimini esda saqlab qolish.

Emotsional xotira – his-tuyg'uga asoslangan xotira.

So'z-mantiq xotirasi: buning mazmunini fikr va mulohazalar, aniq hukm hamda xulosa chiqarishlar tashkil qiladi.

Demak, xotiraga aloqador metodlarni ishlab chiqishda ushbu xotira turlariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Harakat va holat bilan bog'liq o'yin va usullar orqali biz dars mavzusini esda qoldirish bo'yicha metod tuzishimiz mumkin. Masalan, "Aloqador holatni eslab qol", "Atamaga mos holat" kabi. Bunda rasm va ko'rgazmali qurollar, slaydlardan foydalanish mumkin.

Emotsional xotira nafaqat ijtimoiy hayotda, balki pedagogik jarayonda ahamiyatli, ya'ni emotsiya – his-hayajon bilan bog'liq holda ma'lum bir mavzuni o'zlashtirish va esda saqlab qolishga oid metod yaratish mumkin. Bu ko'proq ijtimoiy fanlar, xususan, adabiyot, badiiy asar tahlili, psixologiya, falsafa kabi fanlarga daxldordir.

Bugungi kun metodologiyasi va pedagogikasi uchun muhim bo'lgan masalalardan biri sifatida o'quvchilarda xotira va quntning pasayishini ko'rsatish mumkin. Zero, zamon nuqtayi nazaridan axborotlarning ko'pligi va jadalligi, shuningdek, tabiiy- biologik rivojlanish ham ta'sir etishi mumkin. Bugungi davr o'spirinlari va o'smirlarida kuzatilyotgan xotira bilan bog'liq muammolar yechimi bilan turli sohalar shug'ullanmoqda. Tibbiyot, falsafa, pedagogika, psixologiya sohalarida mavjud shunday yo'nalishlar borki, aynan xotira va uning xususiyatlari, xotirani rivojlantirishning yo'llari hamda usullari borasida ish olib boradi. Ayniqsa, o'qish va o'qitish jarayonida xotiraning mustahkamligi va diqqatning jamlanganligi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqori sinf o'quvchilarida xotira bilan bog'liq muammolarning mavjudligi psixologik rivojlanish va o'zgarishlar bilan ham xarakterlanadi. Darslarni o'zlashtirish, avvalo, ma'lumotlarni eslab qolish, muhokama qilish va mavzu yuzasidan mustaqil fikrlay olish bilan aloqadordir. Dars jarayonida aytilgan ma'lumotlarni, berilgan tushunchalarni o'quvchi qanchalik eslab qolishi va o'zlashtirishi olib borilgan dars metodologiyasida namoyon bo'ldi. Ya'niki xotirani rivojlantirish bilan bog'liq interfaol usullar va metodlardan foydalanib o'tilgan darslar o'quvchida yorqin taassurot qoldiradi. Yoki psixologik va davriy jihatdan aynan yuqori sinf o'quvchilari, ya'nikim o'smir yoshdagi o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan, mos keladigan mashqlardan foydalanish ham samarali ta'lim jarayonini tashkil qiladi. Mavjud usul va metodlar, mashqlardan tashqari, ularni dars jarayonining o'zida individual, improvizatsion tarzda yaratish ham mumkin.

Kichik yoshdagi o'quvchilarda xotirani mustahkamlash uchun ko'plab interfaol o'yinlardan foydalanish mumkin. Ular uchun qiziqarli va esda qolarli o'yinlar tashkil qilish, guruhlariga bo'lingan holda xotira mashqlarini olib borishning o'zi ham samarali bo'ladi. Ammo o'smir yoshdagi bolalar, ya'ni, yuqori sinf o'quvchilarida aynan dars jarayonida xotirani mustahkamlovchi metodlarni qo'llash o'ta jiddiy e'tiborni taqozo etadi. Oldingi maqolalarimizda ko'p marta ta'kidlaganimizdek, ushbu yosh insonning har tomonlama nozik va murakkab davridir. Shunday ekan, har qanday an'anaviy va oddiy dars metodlari, umuman olganda, xotirani rivojlantirishga qaratilgan usullar kutilgan natijani bermasligi mumkin. O'smir yoshdagi o'quvchining shaxsiy-psixologik holati, qiziqishlari va xarakterini inobatga olgan holda yondashmoq lozim.

“Bahs-munozara”, “Mening fikrim”, “Zanjir”, “Mantiqiy savol” kabi mavzular doirasida tashkil etiladigan o'yin va usullar shaxs sifatida rivojlanib kelayotgan o'smir o'quvchilarda yaqqol taassurot qoldiradi. Bu esa tasavvur bilan bog'liq holda xotirada axborotning saqlanishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida xotiraning psixologik jarayon ekanini aytib o'tdik. Zero, aynan inson psixologiyasi xotira balansini boshqaradi. Masalan, biz eslab qolishimiz kerak bo'lgan va xotiramiz bazasida mavjud axborotlar va ularning saqlanish muddati aynan o'sha axborot yoki voqea – hodisa, taassurotning psixologik ta'siri natijasidir. Biz aynan ruhiyatimizga qattiq ta'sir o'tkazgan jarayonni uzoqroq muddatga yoki bir umrga eslab qolamiz. Bu ixtiyoriy yoki g'ayriixtiyoriy bo'lishi mumkin.

Shunday ekan, biz so'z yuritayotgan masala, xotiraning psixologiyadagi o'rni va xotirani rivojlantirish yo'llari, shuningdek, buni dars jarayoniga tatbiq etish masalasida, avvalo, obyektimizga olingan o'smir yoshdagi o'quvchilarning ruhiyati, hissiyot va kechinmalari ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E. G. Psixologiya (Yosh davrlari psixologoyasi) – T., O'qituvchi. – 1994.
2. G'oziyev E. G. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent. – 1997.
3. Kon I. S Pixologiya yunosheskogo vozrasta. – Moskva. – 1979.
4. G'oziyev I. G. Psixologiya metodologiyasi. – Toshkent. – 2002.
5. Bekmuratova D., & Bekmuratova N. (2020). Pedagogical factors in forming adolescents' self-control and self-management. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(3), 489–495.
6. Ismailov M.K. (2021). Talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirish komponentlari va uning pedagogik-psixologik xususiyatlari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 509–522.
7. Suyunov S.J., & Abdullaeva M.M. (2021). Forms and methods of a creative approach to family upbringing in the development of national spiritual relationships of students. *Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka*, 1(2).
8. O'G'Li A.N.K. (2021). O'smirlarda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 433–438.
9. Mamatov M. (2021). O'smir yoshdagi maktab o'quvchilarining ma'naviy tafakkurini rivojlantirish. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 426–433.
10. Бучма В. (2021). Влияние педагогического мастерства учителя на формирование гражданской позиции учащихся подросткового возраста. In *Современная психология: проблемы и перспективы: материалы международной научно-практической конференции (г. Ташкент, 6 апреля 2021 г.)* (PP. 318–320). Ташкентский государственный педагогический университет им. Низами.